

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH**Qosimova Zebiniso Ravshanbek qizi****Qahramonova Zuhraxon Baxodirjon qizi****Andijon davlat pedagogika instituti****Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti****Biologiya yo'nalishi (kechki) 2- bosqich 201- guruh talabalari****Usmonov Dilmurod Dolimovich****Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19479558>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada atmosfera havosi tushunchasining huquqiy tavsifi, atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha ekologik va huquqiy talablar, xalqaro hujjatlar va atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha milliy qonunchilik ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Atmosfera, qonunlar, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, xalqaro hujjatlar, protokollar, bitimlar.

Annotation. this article provides a legal description of the concept of atmospheric air, environmental and legal requirements for the protection of atmospheric air, international documents and national legislation for the protection of atmospheric air.

Key words: atmosphere, laws, administrative responsibility, criminal-legal responsibility, international documents, protocols, agreements.

Аннотация. В данной статье представлено правовое описание понятия атмосферного воздуха, экологические и правовые требования по охране атмосферного воздуха, международные документы и национальное законодательство по охране атмосферного воздуха.

Ключевые слова: атмосфера, законы, административная ответственность, уголовно-правовая ответственность, международные документы, протоколы, соглашения.

Hozirgi vaqtga kelib, atmosfera havosi va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolar nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda eng global muammolardan biri hisoblanadi. Shuningdek, uni muhofaza qilish ham dolzarbligicha qolmoqda. Aslida, atmosfera Yer yuzini samodan keladigan meteor jismlardan, quyoshning tirik jonlar uchun zararli bo'lgan ultrabinafsha nurlaridan saqlaydi. Havo qobig'i Yer yuzini shaffof ko'rpa kabi asrab turadi. Umuman olganda, atmosfera havosi - yer sharini o'rab olgan bir necha xil gazlardan iborat bo'lgan havo qatlami, tirik mavjudot hamda boshqa tabiat boyliklarining mutanosibligini ta'minlovchi manba. Atmosfera havosini muhofaza qilishga doir qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy manbai bo'lib "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun hisoblanadi. Mazkur qonunning 3-moddasiga muvofiq, atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash;
- atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish;
- davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish nazarda tutiladi.

Atmosfera havosi inson hayoti va barcha tirik organizmlar uchun zarur bo'lgan muhim tabiiy resurs hisoblanadi. Uning tarkibining buzilishi yoki ifloslanishi inson salomatligi, o'simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda sanoatning rivojlanishi, transport vositalarining ko'payishi va energetika sohasida yoqilg'ilardan keng foydalanish natijasida atmosfera havosining ifloslanish darajasi ortib bormoqda. Atmosfera havosining asosiy ifloslanish manbalariga sanoat chiqindilari, avtomobillardan ajralib chiqadigan zararli gazlar, maishiy chiqindilarni yoqish va tabiiy omillar kiradi. Bu esa global isish, iqlim o'zgarishi, kislotali yomg'irlar hamda ozon qatlamining yemirilishiga olib kelmoqda. Natijada insonlarda turli kasalliklar, ayniqsa nafas yo'llari bilan bog'liq muammolar ko'paymoqda. Atmosfera havosini muhofaza qilish uchun ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, sanoat korxonalarida tozalash qurilmalaridan foydalanish, transport vositalaridan chiqadigan zararli gazlarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, aholining ekologik madaniyatini oshirish, yashil hududlarni kengaytirish va daraxt ekishni ko'paytirish ham muhim choralardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, atmosfera havosini muhofaza qilish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammo ham hisoblanadi. Uni asrash orqali inson salomatligi, tabiat muvozanati va kelajak avlodlar farovonligini ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shodimetov Y., Tursunov X. – Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Abdullayev S., Qodirov B. – Atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
3. Seinfeld J.H., Pandis S.N. – Atmospheric Chemistry and Physics: From Air Pollution to Climate Change. New York: Wiley, 2016.
4. World Health Organization (WHO) – Air Pollution and Health Report. Geneva, 2022.
5. United Nations Environment Programme (UNEP) – Global Environment Outlook. Nairobi, 2023.